



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

20 25 y. " 18 " fevral

№ 01-10/26

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-60-son qaroriga muvofiq

B U Y U R A M A N:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) to'g'risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

Jamg'armaning tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yoshlar ishlari agentligi:

a) Yuridik bo'lim (A.Xalikov)ga uch kun muddatda Jamg'armani davlat xizmatlari markazi orqali belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash;

b) Moliya-iqtisod bo'limi (J.Rasulov)ga:

besh kun muddatda Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachilik xizmati qo'mitasida Jamg'armaning tegishli g'azna hisobvaraqlarini ochish choralarini ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 21-avgustdagi 168-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalariga (2024-yil 7-oktabr, ro'yxat raqami 3558) muvofiq, Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari bo'yicha joriy yil va keyingi yillar uchun budjet so'rovini Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuborish;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2014-yil 16-oktabrdagi 67-son qaroriga (2024-yil 10-noyabr, ro'yxat raqami 2624) muvofiq, Jamg'armaning budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borish;

d) Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish bo'limi (M.Amreyeva)ga o'n kun muddatda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini Jamg'arma hisobiga o'tkazish choralarini ko'rish va ushbu buyruqning ijrosi yuzasidan o'n kun muddatda Agentlik direktoriga hisobot taqdim etish;

e) Davlat xaridlarini tashkil etish, energiya tejamkorligini ta'minlash va xo'jalik bo'limi (I.Ziyodilloev)ga Jamg'arma faoliyati uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan, zarur sharoitlarga ega va zamonaviy kompyuter va boshqa texnika vositalari bilan jihozlangan alohida xona ajratish, kanselyariya mahsulotlari va internet bilan ta'minlash, shuningdek, Jamg'arma faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktori o'rinbosari F.Ablayarov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Sa'dullayev

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi
Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish
davlat maqsadli jamg'armasi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasining (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) maqomi, maqsadi, vazifalari va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, huquq va majburiyatlarini, faoliyatini tashkil etish va moliyaviy-xo'jalik faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Jamg'arma Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) huzuridagi davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachilik xizmati qo'mitasida milliy va chet el valyutasida ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan blankaga va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

3. Jamg'arma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Agentlikning buyruq va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Nizomga asosan amalga oshiradi.

4. Jamg'arma operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'ladi va ushbu mol-mulk bo'yicha o'z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o'z nomidan mol-mulk sotib olish va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirish, zimmasiga majburiyat olish huquqiga ega, sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashadi.

5. Jamg'armaning rasmiy nomi:

davlat tilida – Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi;

rus tilida – Государственный целевой фонд развития молодежного предпринимательства при Агентстве по делам молодежи;

ingliz tilida – State target fund for the development of youth entrepreneurship under Youth Affairs Agency;

6. Jamg'armaning yuridik manzili: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 11B-uy.

2-bob. Jamg'armaning maqsadi va vazifalari

7. Jamg'armaning asosiy maqsadi – yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga, bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalar, startaplarni hamda yoshlarga manfaat keltiruvchi boshqa loyihalarni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

8. Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalar, shuningdek, yoshlar ishtirokidagi va qishloq xo'jaligi yerlari ajratilgan yoshlarga xizmat ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi kooperativlari loyihalarini (keyingi o'rinlarda – biznes loyihalar) qo'llab-quvvatlash;

ichki va tashqi bozorlarda talab ko'p bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi biznes loyihalarni moliyalashtirish;

kooperatsiya aloqalari asosida yoshlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni (xizmatlar ko'rsatishni) rivojlantirish orqali biznes loyihalarga ko'maklashish;

startup, raqamli, innovatsion, yashil va resurs tejamkor tamoyillar hamda yondashuvlarga asoslangan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

yoshlar ishtirokida shakllanib kelayotgan milliy brendlarni yanada rivojlantirishga ko'maklashish;

biznes loyihalarni tijorat va xizmat ko'rsatish binolari (maydonlari) bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ta'minlash;

inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturini muvaffaqiyatli yakunlagan hamda startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun o'tkazilgan nufuzli tanlovlarda g'olib (sovrindor) bo'lgan startup loyihalarni moliyalashtirish;

yoshlarning istiqbolda muvaffaqiyatga erishish salohiyati yuqori bo'lgan startup g'oyalarining namunaviy modelini (MVP) yaratish, xalqaro inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturlarida ishtirok etishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Jamg'arma qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Jamg'armaning huquqlari va majburiyatlari

9. Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

qonunchilik hujjatlariga muvofiq ushbu Nizomda nazarda tutilgan faoliyatni ta'minlash uchun Jamg'arma kengashining qarori asosida mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;

davlat organlari, xo'jalik birlashmalari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslardan Jamg'arma vakolatlariga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur axborotlarni so'rash va olish;

G'aznachilikdagi o'z hisobvaraqlarida ushbu Nizomda belgilangan manbalardan tushadigan mablag'larni jamg'arish;

vaqtincha bo'sh pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida depozitlarga joylashtirish;

yoshlarning istiqbolli startap loyihalarini moliyalashtiradigan mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi venchur jamg'arma ta'sis etish va Jamg'arma mablag'lari hisobidan uning ustav fondini shakllantirish;

Jamg'arma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Jamg'arma qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

10. Jamg'arma o'z vakolatlarini amalga oshirayotganda:

qonunchilik hujjatlari, ushbu Nizom talablari, Agentlik buyruqlari va farmoyishlari, Kengash qarorlarini to'liq hamda o'z vaqtida bajarishi;

Jamg'arma mablag'larining ushbu Nizom doirasida ishlatilishini ta'minlashi hamda ulardan maqsadli va samarali foydalanishini nazorat qilishi;

o'z faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning tarqatilishi qonun bilan cheklangan bo'lsa, uning maxfiyligiga rioya etishi;

ijro intizomini ta'minlashi shart.

Jamg'armaga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

4-bob. Jamg'arma boshqaruvi

11. Jamg'arma kengashi Jamg'armaning boshqaruv organi, Direksiya ijro etuvchi organi hisoblanadi.

12. Biznes loyihalarni saralash va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga tavsiya qilish uchun o'z sohasida yuqori natijalarga erishgan va samarali faoliyat yuritib kelayotgan 20 nafar tadbirkordan iborat tarkibda jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Jamg'arma Kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash) tuziladi.

13. Kengash tarkibi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi. Bunda, Kengash a'zolari tarkibining kamida 30 foizi yosh tadbirkorlar orasidan shakllantiriladi. Agentlik direktori Kengashga raislik qiladi.

14. Kengash a'zolari bir vaqtning o'zida Direksiyada mehnat faoliyatini yuritishi mumkin emas, Direksiya ijrochi direktori bundan mustasno.

15. Kengash:

Jamg'arma mablag'lari va boshqa mol-mulkidan foydalanilishi hamda Jamg'armaga yuklangan vazifalar bajarilishini nazorat qiladi;

Jamg'armaning daromadlari va xarajatlarini o'z ichiga olgan moliyaviy rejani tasdiqlaydi;

zaruratga ko'ra mazkur yillik moliyaviy rejaga o'zgartirishlar kiritadi;

Direksiyaning saqlash xarajatlari smetasini, shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

Jamg'arma oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarni jalb qiladi, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining homiylik xayriyalarini jalb etishga ko'maklashadi;

Jamg'arma xodimlarining mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish shartlarini qonunchilik talablari asosida belgilaydi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

16. Kengash uning a'zolarining to'rtidan uch qismidan iborat malakali ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadigan qaroriga muvofiq:

biznes loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlari past bo'lgan hollarda tegishli qo'llab-quvvatlash instrumentlari bo'yicha moliyalashtirishni to'xtatish;

xalqaro yuridik, auditorlik, investitsiya maslahatchilari, konsalting kompaniyalari, yuqori malakali mahalliy va xorijiy ekspertlar (konsultantlar)ni shartnoma asosida Jamg'arma faoliyatiga jalb etish;

yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni ommalashtirish, yoshlar tadbirkorligi uchun qulay muhit yaratish bilan bog'liq tadqiqotlarni o'tkazish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalariga to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida buyurtma berish vakolatiga ega.

17. Kengash majlislari zaruratga ko'ra o'tkaziladi.

Kengash qarorlari majlisda qatnashayotgan Kengash a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, qonunchilik hujjatlarida va ushbu Nizomda boshqacha tartib belgilangan hollar bundan mustasno.

Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, Kengash raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

18. Kengash a'zolari:

Kengash majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal etishda ishtirok etish;

ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish;

majlislarda shaxsan yoki videokonferensaloqa vositasida qatnashish, agar qatnashish imkoni bo'lmagan taqdirda, majlis kun tartibi bo'yicha o'z fikrini yozma ravishda taqdim etishga haqlidirlar.

19. Kengash raisi:

Kengash majlisi kun tartibini belgilaydi va tasdiqlaydi;

Kengash qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Kengash a'zolariga yuklangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan ularning ishini muvofiqlashtiradi;

Kengashning samarali ishlashini ta'minlash uchun boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Kengash kotibi:

ushbu Nizomda belgilangan maqsadlarga Jamg'armadan mablag' olishga oid murojaatlarni Kengash majlisida ko'rib chiqishga tayyorlash uchun Kengashning a'zolariga tegishliligi bo'yicha taqsimlaydi;

Kengash majlisiga barcha zarur hujjatlarning o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

majlisni o'tkazish muddatlari va joyi bo'yicha Kengash raisiga takliflar kiritadi;

kun tartibidagi masalalari bo'yicha Kengash majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Kengash a'zolari va taklif etilgan shaxslarni majlis sanasi, vaqti, joyi va kun tartibi loyihasi bo'yicha xabardor qiladi;

Kengash majlisi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalarni Kengash a'zolariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuboradi;

Kengash qarorlari ijrosining nazoratini yuritadi hamda Kengashga muntazam ravishda axborot kiritib boradi.

21. Direksiya Jamg'armaning ijro organi hisoblanadi. Unga Kengash a'zolari orasidan umumiy ovozlari sonining kamida to'rt dan uch qismidan iborat malakali ko'pchilik ovozi bilan aniqlanib, Agentlik direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladigan Direksiyaning ijrochi direktori rahbarlik qiladi.

22. Jamg'arma Direksiyasi tuzilmasi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Zarurat bo'lganda, Agentlik direktori tasdiqlangan boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni doirasida Direksiya tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritadi.

23. Direksiya:

Jamg'armaga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qiladi;

Kengash qarorlari to'liq va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlaydi;

mablag'lar va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobi yuritilishini, statistika va buxgalteriya hamda boshqa turdagi hisobotlar tuzilishini hamda ular Kengash va tegishli davlat organlariga belgilangan tartibda taqdim etilishini tashkil qiladi;

Jamg'arma mablag'larini oluvchilarining jamlangan hisobotlarini qabul qiladi va o'rganadi;

Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining yillik moliyaviy rejasini ishlab chiqadi;

Jamg'armaning tushumlar manbalari bo'yicha daromadlari hamda asosiy xarajatlari yo'nalishlari bo'yicha hisobini yuritadi;

Jamg'arma mablag'lari sarflashining shaffofligini, uning daromadlari va xarajatlari to'g'risida hisobdorlikni, shuningdek faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini hamda ushbu mablag'lardan belgilangan tartibda foydalanishni ta'minlaydi;

har chorak yakuni bo'yicha Jamg'arma mablag'laridan foydalanish to'g'risida hisobot tayyorlaydi hamda Kengashga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etadi;

daromadlar va xarajatlar smetalarini tayyorlaydi, shuningdek ularga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar kiritadi;

Jamg'arma tushumlarini ko'paytirish va uning mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

Jamg'armaga xorijiy investitsiyalar, grantlar hamda homiylik xayriyalarini jalb qilish choralari ko'radi;

mablag'lardan maqsadsiz foydalanilgan hollarda, mehnatga haq to'lash bo'yicha to'lovlardan tashqari moliyalashtirishni to'xtatib turadi, keyinchalik ushbu masalani Kengashga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

milliy va chet el valyutasida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochadi va yuritadi, belgilangan tartibda ular bo'yicha tegishli operatsiyalarni amalga oshiradi;

Kengash roziligi bilan bo'sh mablag'larni qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida milliy valyutada depozitlarga joylashtiradi;

Jamg'arma resurslari hisobidan ajratilgan mablag'lar yuzasidan hisobotlar, shu jumladan qo'llab-quvvatlash instrumentlari va loyihalar kesimida ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni Agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilish uchun taqdim etadi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

24. Direksiya ijrochi direktori:

Jamg'armaning joriy faoliyatini tashkil etadi va Jamg'armaga yuklangan vazifalar bajarilishi, shu jumladan, uning mablag'laridan maqsadli foydalanilishini ta'minlaydi;

Direksiya faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, qonunchilik hujjatlari, Kengash qarorlari, Agentlikning buyruq va farmoyishlari bilan Jamg'armaga

yuklangan vazifalar hamda funksiyalarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini tashkil etadi;

Direksiya, uning tarkibiy bo'linmalari faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar, maqsadli indikatorlarga, sifatga va rivojlantirish dasturlarining samarali amalga oshirilishiga erishishni so'zsiz ta'minlash yuzasidan amaliy choralar ko'radi;

Direksiya xodimlarini ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, ularni rag'batlantirish hamda intizomiy jazo choralari qo'llash haqida, shuningdek, Jamg'arma xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlarni chiqaradi;

davlat organlari va tashkilotlari, xo'jalik birlashmalari, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy davlatlarning tegishli organlari va tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar oldida Jamg'arma manfaatlarini ifodalaydi;

Kengash bilan kelishgan holda, Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi bo'yicha belgilangan tartibda tekshiruvlar tashkil qiladi, ularning natijalarini tahlil qiladi va ko'rib chiqish uchun Kengashga taklif kiritadi;

jismoniy va yuridik shaxslar, tijorat banklari bilan Jamg'arma faoliyatiga tegishli kelishuvlar va shartnomalarni, shu jumladan, kredit, xo'jalik va mehnat shartnomalarini hamda resurs va depozitlar shartnomalarini imzolaydi, Direksiya nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi;

shtatlar jadvalini, Jamg'arma mablag'lari hisobidan Direksiya ta'minotining xarajatlar smetasini tuzadi va tasdiqlash uchun Kengashga taqdim etadi;

Direksiyaning lavozim yo'riqnomalari va boshqa ichki hujjatlarini tasdiqlaydi;

Jamg'arma nomidan sudga va boshqa davlat organlariga da'volar taqdim etadi; qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

25. Direksiyaning ta'minoti byudjet tashkilotlari uchun belgilangan tartibda tasdiqlanadigan xarajatlar smetasi asosida Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5-bob. Jamg'armaning moliya-xo'jalik faoliyati

26. Jamg'arma faoliyatini moliyalashtirish manbalari:

Davlat budjetidan 2025-yilda ajratiladigan 200 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining qoldiq mablag'lari hamda ushbu jamg'arma hisobidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha olinadigan mablag'lar;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining homiylik xayriyalari;

Jamg'arma mablag'larini tijorat banklari depozitlariga belgilangan tartibda joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan va ular bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

27. Jamg'armaning joriy moliya yilida foydalanilmagan (o'zlashtirilmagan) mablag'lari keyingi moliya yiliga o'tkaziladi.

28. Jamg'arma xodimlarining ish haqi qonunchilikda nazarda tutilgan lavozim maoshi, qo'shimchalar, ustamalar, pul mukofotlari va boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlardan tashkil topadi.

Jamg'arma xodimlarining mehnatiga haq to'lash razryadlari Agentlik markaziy apparati xodimlari uchun belgilangan razryadlardan bir pog'ona past miqdorda qo'llaniladi. Bunda, Jamg'arma xodimlari mehnatiga haq to'lashning boshqa shartlari bo'yicha Agentlik markaziy apparati xodimlari uchun belgilangan shartlar tatbiq etiladi. Jumladan:

Jamg'arma xodimlariga yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga ko'ra lavozim maoshlarini aniqlashda tarif koeffitsientlari 1,8 baravar qo'llaniladi;

Jamg'arma xodimlariga uzoq muddat xizmati uchun har oyda quyidagi miqdorda ustama haq to'lanadi (rag'batlantirish koeffitsientini hisobga olgan holda, lavozim maoshiga nisbatan koeffitsient hisobida):

- 1 yildan 3 yilgacha – 0,5;
- 3 yildan 5 yilgacha – 0,8;
- 5 yildan 10 yilgacha – 1,0;
- 10 yildan 15 yilgacha – 1,2;
- 15 yildan ortiq – 1,5.

Jamg'arma xodimlarining uzoq muddat xizmati uchun haq olish huquqini beruvchi ish staji, Agentlik direktori tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Shuningdek, Jamg'arma xodimlarni jamoa shartnomasida nazarda tutilgan tartibda moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydi.

29. Jamg'arma faoliyatini moliyalashtirish bilan bog'liq barcha xarajatlar qonunchilik hujjatlari bilan unga yo'naltiriladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Jamg'arma faoliyati belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan Kengash a'zolarining kamida to'rt dan uch qismidan iborat malakali ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan har yili tasdiqlanadigan Jamg'arma daromadlarining shakllanishi va mablag'larning qo'llab-quvvatlash instrumentlari

kesimida yo'naltirilishini nazarda tutuvchi moliyaviy reja asosida tashkil etiladi. Bunda:

zaruratga ko'ra mazkur yillik moliyaviy rejaga Kengash a'zolarining xuddi shunday ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadigan qarori asosida belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilishi mumkin;

moliyaviy yil yakuni bo'yicha Jamg'arma direktori tomonidan Kengashga batafsil hisobot taqdim etiladi.

30. Jamg'armaning budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va sarflash qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

31. Jamg'arma belgilangan tartibda o'z faoliyati natijalarining buxgalteriya hisobini amalga oshiradi, statistika hisobotini yuritadi.

6-bob. Hisobga olish va hisobot

32. Jamg'arma mablag'laridan foydalanilishi to'g'risidagi hisobot har chorakda Kengash tomonidan ko'rib chiqiladi va Direksiya tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etiladi.

33. Jamg'arma buxgalteriya va statistika hisobi hamda hisobotini yuritadi, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa to'lovlarni to'laydi.

7-bob. Jamg'armaning mol-mulkini tasarruf etish

34. Jamg'armaning mulki quyidagi hollarda qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda Agentlik bilan kelishgan holda tasarruf etiladi:

asosiy vositalarni sotish, hisobdan chiqarish (binolari va inshootlari, shu jumladan, qurilishi tugallanmagan binolari va inshootlaridan tashqari);

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining hududiy bo'linmalari, qurilish sohasidagi loyihalashtirish tashkilotlari, maxsus litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining xulosasiga muvofiq yaroqsiz deb topilgan hamda vakolatli organlar tomonidan buzish to'g'risida qaror qabul qilingan ko'chmas mulk ob'ektlarini buzish;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yoki uning hududiy bo'linmalari roziligi bilan avtotransport vositalarini xarid qilish, bino va inshootlarni sotib olish va/yoki qurish;

mulkni davlat muassasasi faoliyati maqsadlariga muvofiq bo'lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

Bino va inshootlar (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan bino va inshootlar), shuningdek, davlat muassasasiga tegishli aksiyalar (ulushlar) Davaktiv agentligi tomonidan sotiladi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tegishli mol-mulklar (bino va inshootlar, aksiyalar, ulushlar va boshqalar) hamda qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Bunda bino va inshootlarni (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan binolari va inshootlarni), shuningdek, davlat muassasasiga tegishli aksiyalarni (ulushlarni) sotishdan tushgan mablag'lar ularni sotib olish manbalaridan qat'i nazar, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanadi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

35. Jamg'armaning mol-mulki Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan garovga qo'yiladi.

36. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari davlat muassasalariga xo'jalik jamiyatlarini ta'xis etish hamda ularning ustav fondi (ustav kapitali)da ishtirok etish taqiqlanadi.

8-bob. Jamg'armani qayta tashkil etish va tugatish

37. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Agentlik direktorining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

38. Jamg'arma faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

39. Mazkur Nizomni qo'llash bilan bog'liq holda vujudga keladigan kelishmovchiliklar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

40. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish
davlat maqsadli jamg'armasi davlat muassasasining
TUZILMASI**

